

Axloq normalari qat'iy nazoratda

Bugungi kunda O'zbekistonda yoshlarning bilim olishi bilan birga tarbiyasi va axloqiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida ma'naviy-ma'rifiy masalalar bo'yicha direktor o'rinbosarlari — mahallalarda profilaktika inspektorlari, ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchilarning birgalikda olib borayotgan tizimli ishlari ham shu masalaga qaratilgan.

Yoshlarga oid davlat siyosati yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish, yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalardan himoya qilish, o'g'il-qizlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, sog'lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va sportni ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan.

Farzand tarbiyasi, avvalo, tug'ilib o'sgan oilasida oladi. Xalqimizda ko'p yillardan buyon yashab kelayotgan naqlni yodga olaylik: "O'g'il otadan, qiz onadan andoza oladi". Afsuski, bugungi kunda ko'pchilik ota-onalar ish bilan band, farzand tarbiyasini ta'lim bilan birga negadir maktabning zimmasiga yuklab qo'yishmoqda. Sharq xalqlarida, shu jumladan ta'lim muassasalarida ham ta'lim-tarbiya bilan parallel tarzda olib boriladi. Sinf rahbarlariga o'quvchilarning oilaviy sharoiti, fe'l-atvori, xulqini o'rganish vazifa qilib topshirilgan.

O'smirlarning vaqtini to'g'ri taqsimlash, ularni kasb-hunar va sportga keng jalb etish maqsadida "Besh tashabbus" doirasida turli yo'nalishlarda maktab to'garaklari ishlab turibdi. O'g'il-qizlarning kitobxonlik, adabiyot, madaniyat va san'atga bo'lgan iqtidori va qiziqishini shakllantirish, rivojlantirish maqsadida "Juma — ma'naviyat kunlari" doirasida turli adabiy-badiiy, intellektual, musiqiy tadbirlar doimiy tarzda tashkil etilmoqda. Bu tadbirlar bevosita Respublika Ma'navi-

yat va ma'rifat markazi, Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston Milliy gvardiyasi bilan hamkorlikda o'tkazilmoqda.

Xalq ta'limi vazirligining 2022-yil 28-iyuldagi 246-son buyrug'iga asosan "Ichki tartib va odob-axloq qoidalarini umumiy o'rta ta'lim muassasalarida joriy etish"ning istiqbolli rejasi ishlab chiqildi. Rejaga asosan, Xalq ta'limi vazirligi "Umumiy o'rta ta'lim muassasasining ichki tartib va odob-axloq qoidalarini"ni ishlab chiqish uchun ko'rsatma berdi. Mazkur topshiriqqa asosan maktab ta'lim muassasalarida ichki odob-axloq qoidalarini quyidagicha tartibga solinmoqda:

— o'quvchilarning maktabga maktab formasida kelishi, jumladan, o'g'il bolalar kalta shim, futbolka, shippakda va qiz bolalar kalta, ochiq, tor va tanani shaffof ko'rsatuvchi kiyimda kelishi hamda bo'yni va barmoqlariga turli xil taqinchoqlar taqishiga yo'l qo'yilmaydi;

— o'zaro munosabatlarda inson shaxsiyati va qadr-qimmatini kamsitish, haqorat qilish va behayo so'zlarni ishlatish man etiladi;

— qonun bilan taqiqlangan, milliy va umumbashariy qadriyatlarga xos bo'lmagan yoki ta'lim muassasasining ichki munosabatlariga tegishli, shuningdek, ta'lim muassasasi va o'qituvchi obro'sini tushirishga qaratilgan munosabatlar aks etgan audio hamda videomateriallarni turli ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirishi yoki undan turli g'arazli maqsadlar yo'lida foydalanishi;

— dars jarayonida quloqchinlar orqali uyali aloqa vositalari va turli xil audio qu-

rilmalardan foydalanishi, dars jarayonini uyali aloqa vositasining kamerasi orqali suratga olishi;

— ta'lim muassasasi kompyuterlarida ta'lim muassasasiga tegishli bo'lmagan ma'lumotlar, shuningdek, qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan bolalarning yosh xususiyatlariga mos bo'lmagan turli videomateriallar, noqonuniy diniy ma'lumotlar, behayo suratlar, milliy, irqiy, etnik, diniy adovatni, zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi, pornografik xarakterdagi har qanday video, audio va fotomateriallarni tayyorlash, saqlash, foydalanish va targ'ib etish taqiqlanadi;

— ta'lim muassasasi hududida har bir o'quvchi o'z uyali aloqa vositalarini o'chirib qo'yishi, pedagog va texnik xodimlar hamda tashrif buyuruvchi boshqa shaxslar o'z uyali aloqa vositalari qurilmalarini chaqiruv ovozi to'liq o'chirib qo'yishi ("ovozsiz" holatga o'tkazishi) shart.

Ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotlari va tadbirlar (saflanish, tarbiyaviy soatlar, bayram, sport tadbirlari) boshlanishidan oldin ta'lim oluvchilar telefonini o'chirib qo'yishi hamda telefonini sumkasiga solib qo'yishi shart (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil, 21-maydagi 139-son qarori bilan tasdiqlangan "Ta'lim muassasalarida mobil telefonlardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizom").

Mazkur qoidalardan ko'zda tutilgan maqsad, yoshlarni axloq normalariga maktab yoshidan o'rgatish, ayniqsa, o'smir yigit-qizlarning ruhiyatini yaqindan o'rganish va ular bilan yuzaga keladigan muammolarning oldini olishga qaratiladi. Bugun internet atalmish ma'lumotlar bazasi shiddat bilan ilgari borayotir. Bu ta'limga ham, tarbiyaga ham, yashash tarzimizu odatlarimizga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Mazkur tarmoqdan to'g'ri foydalanib, ilm-hunar egallash mumkin. Ammo noto'g'ri foydalanilsa-chi? Qanday oqibatlariga olib keladi? Shu haqda o'ylab ko'rish

har bir mas'ulning (ustoz, pedagog, maktab rahbari, ota-onaning) vazifasidir. Vaqtini bekorchi o'yinlarga, axloq va tarbiyamizga mos kelmaydigan "TikTok", "Vine", "Chel-lenjlarga" sarflaydigan yoshlarimizni ham qat'iy nazoratga olishimiz zarur. "Ommaviy madaniyat"ning ildizi, negizida milliy qadriyatlarni unutishga olib keladigan illatlar yotadi. Kattaga hurmat, ota-ona, ustoz va o'qituvchiga nisbatan munosabatlarda izzat va ikrom bilan munosabatda bo'lish sharq ruhiyati, qon-qoniga singib ketgan ana hisoblanadi. O'quvchilarga axloqiy bilimlar, avvalo, oilada, unga qo'shimcha tarzda maktabdagi "Tarbiya darslari"da o'rgatiladi. Bu bilim va ko'nikmalar yillar davomida shakllantirib boriladi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasasining yangi ishlab chiqilgan ichki tartib va odob-axloq qoidalarini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida", "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida", "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida", "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida", "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonunlari hamda Vazirlar Mahkamasining "Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o'zini-ozini boshqarish organlarining ta'lim muassasalarini bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va umume'tirof etilgan ma'naviy-axloqiy tamoyillar asosida ishlab chiqilganligini e'tirof etish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, xalq ta'limi sohasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan har bir islohot zamirida, avvalo, ta'lim va tarbiyaning chambarchas olib borilishiga katta e'tibor qaratiladi.

Jamoliddin FOZILOV,
Xalq ta'limi vazirligi Ma'naviyat
boshqarmasi boshlig'i
Xolboy IBROHIMOV,
T.N. Qori-Nijoziy nomidagi
O'zPFITi direktori

Milliy dastur — amalda

Yangi darsliklar — ensiklopedik ko'rinishda

Dunyo mamlakatlarida so'nggi 10–20 yil ichida ta'lim standartlari bo'yicha yangiliklar, yangicha yondashuvlar yuzaga keldi. Mamlakatimiz xalq ta'limi tizimida ham o'ziga yarasha qoidalar, standartlar bo'lgan va ular o'z vaqtida o'zini oqlagan. Masalan, bundan 20–25 yil avval sinfdoshlarim bilan darsliklar taqchilligidan bitta fanga bitta kitob bilan kifoyalanganmiz. Tarix fanidan ma'lumotlar juda ko'p, uzviylik esa yo'q edi. Chalkashliklar sovet davrida yaratilgan darsliklar qolipidan to'liq chiqib ketolmagan. Yillar davomida tarixiy davrlar, voqealar shakllantirildi, shu paytgacha umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari bu borada asosiy yo'l ko'rsatkich vazifasini o'tagan.

2017-yildan boshlab ta'limni isloh qilish bo'yicha amaliy harakatlar boshlab yuborildi. Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida 100 ta maqsaddan 5 tasi va 18 ta vazifa bevosita umumiy o'rta ta'lim bilan bog'liq. Umumiy o'rta ta'limda eski Davlat ta'lim standartlari (DTS) o'rnini bosadigan va ta'limga o'zgarishlar kirita oladigan Milliy o'quv dasturining yaratilayotgani quvonarlidir. Bunda asosiy e'tibor mustaqil o'rganish, tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash, ijodkorlik, tizimli va mantiqiy fikrlash kabi XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishga qaratiladi.

Barcha yangi tarix o'quv darsliklarini kuzatar ekanman, bu darsliklarni o'quvchilarning qanchalik qiziqish bilan qabul qilishlarini his qildim. Ayniqsa, rasmlarining rang-barangligi va illyustratsiyaga boyligi, tasvirlar orqali bilimlarga ega bo'lishi va tasvirlar orqali tasavvur

qilib mavzularni yoritish olish ko'nikmasini hosil qilishi bu ta'limning maqsadlaridan biridir. O'quvchilar tarix darsliklaridagi ma'lumotlarni, topshiriqlarni mushohada yuritish orqali hozirgi zamon bilan bog'lab, o'zining hayotida tarix fanini bilish qanchalik muhimligi yoki tarixiy, siyosiy jarayonlarni bilish uning hayotda mustaqil o'z o'rnini topishiga qanchalik xizmat qilishini his qiladi. Ensiklopedik ko'rinishga ega bo'lgan bunday zamonaviy darsliklar, albatta, ta'limning samarali bo'lishiga xizmat qiladi. 6-sinf darsligi deyarli ma'lumotlar o'zgaragan bo'lsa-da, o'quvchilarni o'ziga tortadigan darajada qiziqarli rasmlar va juda qulay ma'lumotlar, faktlarga ega. "Jahon tarixi"ning 7-8-9-sinflarda 34 soatdan o'tilishi yosh avlod jahon tarixining eng muhim, bilishi kerak bo'lgan voqea-hodisalarini o'rganishi va ko'plab talab va istaklar asosida "O'zbekiston tarixi"

darsligining 68 soat etib belgilanishi o'z tariximizni, ma'naviy-madaniy merosimizni o'rganishga keng bilim va imkoniyatlar yaratadi. 7-sinflarda avvalgi darsliklar bo'yicha V asr oxiridan XV asr oxiriga qadar, ya'ni deyarli 10 asrlik tarixni o'rganish ancha murakkab va qiyin edi. Yangi darslik bo'yicha 7-sinf "O'zbekiston tarixi"da IV–XIII asr boshlarigacha bo'lgan tariximiz yoritilsa, "Jahon tarixi" darsligida V–XIII asrlar tarixi jamlandi. Muhim bo'lmagan ba'zi ma'lumotlar qisqartirildi. Bu bilan o'quvchilar ijodiy faoliyat va mulohaza yuritishi, jadvallar orqali oson mavzuni o'zlashtirishi, bitta mavzuning ikki soatga mo'ljallanishi esa mahoratli o'qituvchilarning turli metod va usullar orqali dars jarayonini qiziqarli tashkil etishlari va o'quvchilar bu mavzuni to'liq va samarali o'zlashtirishining muhim omilidir.

10-sinf "Jahon tarixi" darsligi XIX asr oxiridan 1991-yilgacha bo'lgan davrni qamrab o'tilsa, "O'zbekiston tarixi" darsligida XIX asrning ikkinchi yarmidan to XX asr oxirigacha bo'lgan davr o'tilishi belgilandi. Optimallashtirilgan darsliklar orqali o'quvchilarning dars o'zlashtirishdagi qiyinchiliklari va murakkabliklarining oldi olinadi. Albatta, biz pedagoglar kreativlik, tashabbuskorlik bilan o'z ustimizda ishlash orqali o'quvchilarni tarix darslariga qiziqitira olishimiz lozim.

Barno PARDAYEVA,
Denov tumanidagi
72-maktab o'qituvchisi